

## INSON MA'NAVIY BORLIG'INING MOHIYATI O'ZLIKNI ANGLASHDAGI MUHIM ME'ZON

**Sattorov M.**

*SamDVMCHBU,*

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport”  
kafedrası f.f.b.f.doktori (Phd) o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Inson tabiat mo'jizasi, u bir vaqtning o'zida tabiiylik va ijtimoiylikni o'zida mujassam etgan ongli mavjudod hisoblanadi. Inson o'zining ehtiyoji yo'lida kurashuvchanligi, doimo oldinga intilishi, uning qiziquvchanligi, inson to'plagan bilimlar inson ma'naviy borlig'ining asosi hisoblanadi. O'zlikni anglash-insonni ongli, fikr qiluvchi bioijtimoiy mavjudod ekanligini bildirish bilan birga, uning yashashdan maqsadi, hayotning ma'nosi, ertangi kun uchun yashashi, undan umid qilishi, o'z oldiga aniq maqsadlarni qo'yib, uni amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi.*

**Kalit so'zlar :***Fan, falsafa, inson, manaviy borliq, ma'naviylik va moddiylik, inson borlig'i, dialektika, dunyoqarash, bilim, insonni qiziqishlari, madaniyatlilik, insonni yaratuvchanligi, onglilik va ongsizlik, o'zlikni anglash, ta'lim va tarbiya, me'yor.*

“Inson ma'naviy borlig'ining tahlilida u tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson borlig'ini farqlash o'rinli bo'ladi. Inson borliq va yo'qliq dialektikasi bilan bog'lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo'lish holatlaridan o'tadi.”<sup>1</sup> Tabiat, jamiyat va inson bir-biri bilan ajralmas yagona tizim bo'lib, alohida sotsial mazmunga ega ya'ni bir butun materiyaning ikki qismidir. Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida inson eng yuqori o'rinni egallaydi. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning tabiatga bo'lgan munosabati ham turlicha bo'lgan. Tabiat bilan inson orasidagi aloqalar taxminan 2,5 million yil muqaddam boshlangan bo'lib, ushbu davrda yashagan odamlar tosh, tayoqlar va suyaklardan eng sodda qurollar sifatida foydalana boshlaganlar.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida, inson bilan tabiatning o'zaro ta'sirini to'g'ri yo'lga qo'yish, tabiat resuslarini, isrof qilmaslik uchun, o'sib kelayotgan yosh avlodni, har tamonlama dunyoqarashini, keng qilib tarbiyalash orqali, ularda ekologik ong va madaniyatini shakllantirish orqali, kelajakda, tabiat bilan inson

<sup>1</sup> Ochilova G.A, Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa.-T.:VORIS-NASHRIYOTI.2020.77.b



munosabatini ijobiy hal etish mumkin. Chunki inson, tabiat qo'ynida yashar ekan, unga texnogen tasir etaveradi. Bu ishlarni amaliy hal etish uchun, jamiyatda aql kuchi tantanasiga erishish lozim.

Odamzodning aql kuchiga tayanib, kurashga o'tgani uzoq vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq o'tgan o'sha million yillar davomida, inson ona tabiatga bizning asrimizdagidek dahshatli, ta'sir o'tkazgan emas. Yer kurrasida ekologik inqirozli obyektlarning kengayishi, ommaviy kasalliklarni ko'payishi tabiatga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishni majbur etmoqda.

Inson tabiat mo'jizasi, u bir vaqtning o'zida tabiiylik va ijtimoiylikni o'zida mujassam etgan ongli mavjudod hisoblanadi. Inson o'zining ehtiyoji yo'lida kurashuvchanligi, doimo oldinga intilishi, uning qiziquvchanligi, inson to'plagan bilimlar inson ma'naviy borlig'ining asosi hisoblanadi. Insonlardagi shu sifat va fazilatlarini mavjudligi, uning tirik yashab qolishini ta'minlab, o'z navbatida, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalarni bilishga tomon borishi, inson bilimining rivojlanib borishini ta'minlab, uning ma'naviy borlig'ining mohiyatini shakllanishiga olib kelgan.

“Manaviy borliq subyektiv individullashgan va obyektiv (noindividual) ma'naviy borliq sifatida mavjud. Individullashgan ma'naviy borliq- bu insonning ichki dunyosi, u onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh-individual ong bilan ayniy tushuncha, tor manoda esa u tafakkurdir.”<sup>2</sup>

Insonning ma'naviy borlig'i, o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra onglilik, tartiblilik, maqsadli faoliyat olib borishi, nutq va xotiraga egaligi, bois ularni amalda qo'llash orqali, inson o'zligini, namoyon qiladi. Ma'naviylik va moddiylik insonga xos bo'lib, shularga tayanib, moddiy qadriyatlarni yaratish, insonlardan ma'naviy barkamollikni talab etadi. “Ong inson borlig'ining eng muhim omilidir”<sup>3</sup> Ma'naviylik insonni sezishi, idroki, tasavvur qilishi, tafakkur qila olishi, insonni tushunchalar dunyosi tomon olib borishini bildirib, yangi narsalarni dunyoga kelishini, o'z navbatida, bu jarayon inson borlig'ini rivojlantirib, o'zi uchun yangi bilim, manzillari tomon borishida, unga hamroh va yo'l ko'rsatuvchi mayoq vazifasini bajaradi.

Insonning tabiatida, oddiylikdan murakkablik tomon borishi, insondan bilishni talab qiladi. Bilish esa bilim (chinligi-amalda isbotlangan) tomon yo'nalish belgilashi, bilim ham o'z navbatida insonni o'ziga noma'lum bo'lgan narsalarni bilishga undashi bilan, inson ma'naviy borlig'ida muhim ahamiyat kasb etadi. Insonni ma'naviy borlig'i uni jamoada, insonlar bilan birgalikda yashashi, jamiyatda belgilangan tartib-qoidalar asosida faoliyat yurgizib, yashashini taqozo qiladi.

<sup>2</sup> Ochilova G.A, Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa.-T.:VORIS-NASHRIYOTI.2020.77.b

<sup>3</sup> Ochilova G.A, Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa.-T.:VORIS-NASHRIYOTI.2020.80.b



Insonning yaratuvchanligi uni amaliyotga boshlashi, erishilgan natija, inson tajribalarida qaror topib, yanada mukammallik tomon olg'a yurishi, insonni o'zlikni anglash tomon borayotganligidan dalolat beradi.

“Shunday qilib, o'zlikni anglash- insonning o'zini-o'zi tinimsiz kamol toptirishning muhim shartidir”<sup>4</sup>

O'zlikni anglash-insonni ongli, fikr qiluvchi bioijtimoiy mavjudod ekanligini bildirish bilan birga, uning yashashdan maqsadi, hayotning ma'nosi, ertangi kun uchun yashashi, undan umid qilishi, o'z oldiga aniq maqsadlarni qo'yib, uni amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi. O'zlikni anglashning zamirida ehtiyojlar, bilim, qiziqish, ularni qondirish borasidagi say-harakatlar yotishini ongli tushunib, tizimli faoliyat olib borish asnosida rivojlanib boradi. Insonda shu sifatlarni qaror toptirishga doir, xohish va istakni yo'qligi insonni o'z yo'lidan ozdirib, o'z ehtiyojlarini qondirishni tartibsiz, maqsadsiz belgilanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun tarixning barcha davrlarida inson ma'naviy borlig'ini rivojlantirish, o'zlikni anglashni kafolati deb qaralgan.

Bu ikki tushuncha o'zining, mazmun mohiyati bilan, insonlar hayotida muhimligi va ayni vaqtda murakkabligi bilan, boshqa tushunchalar orasida o'zining mazmundorligi, ko'lami va miqyosi bilan ajralib turadi. Insonning axloqi- uning ichki ma'naviy go'zalligi, insonning ma'naviy borlig'ini tashkil etib, shunga tayanib jamiyatda, o'z o'rnini topishga intilishi, yaxshi yashashga umid bog'lashi, insonning ongli mavjudod ekanligini bildirib, to'g'ri fikr yuritish orqali, boshqalar bilan hamkorlikda ish bajarishni talab etadi.

Tartib-inson, axloqining asosi bo'lib, tartibsiz yurish-turish insonlarning yengiltakligini bildiradi. U insonlarning ma'lum bir xatti-xarakterlarida, maqsadsiz, ish faoliyatini, axloqiy normalarga zid ravishda, bajarmaslik, inson shaxsini el orasida obro'ysizlanishiga olib keladi. O'z navbatida obro'ysizlanish-inson ma'naviy dunyosining torligini bildirib, jamiyatning ma'lum bir sohasida belgilangan tartib-qoidalarni, insonlar jamoasi, tomonidan to'plangan o'zlashtirilgan bilimlarning o'zlashtirishga bo'lgan intilishning yo'qligi natijasida, jamiyatda insonlar orasida shakllanadigan, ijtimoiy ma'naviy hodisa hisoblanadi. Insonlar orasida, anashunday maylni ortib borishini, hisobga olib aytganda, bugungi kunda jamiyatda mavjud tizimlarni o'zgartirish, ularni yangicha tartibda tashkil qilish bilan birga, uni takomillashtirish zaruriyati ko'tarilmoqda. Jamiyatda o'rnatilgan ma'lum bir tartib-qoidalar, har doim ham insonlardan ma'lum darajada, salohiyatni talab qiladi. Salohiyat zamirida insonlarning bilim va axloq borasidagi fikrlarining kengligini

<sup>4</sup> Ochilova G.A, Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa.-T.:VORIS-NASHRIYOTI.2020.138.b



anglatib, tahlil qilish, taqqoslash, undan zaruriy xulosalarni chiqarishdek ma'suliyatli vazifani bajarishni o'zida ifoda etadi.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonni barpo etish, insonlarning bilim darajasini oshirish, ularni ijtimoiy-siyosiy savodxonligini ko'tarish borasida, qilingan va qilinayotgan ishlar zamirida, milliy o'zlikni anglash, tuyg'usining turishligini unitmasligimiz lozim. Bugungi kunda dunyoda jumladan O'zbekistonda yoshlarning ta'lim va tarbiyasini yaxshilashga, doir yaratilgan va yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, inson aql-zakovatining xosilalasi bo'lish, bilan birga uni mukammallik tomon borishida muhim sanaladi. Ta'lim va tarbiyasiz, inson ma'naviy borlig'ini, uning bilim doirasining ko'lami haqida gapirish o'rinsiz ayni vaqtda mantiqsizlikdir. Ta'lim tarbiyaga, insonlar har doim, ehtiyoj sezishi, shu ehtiyoj tufayli insonning maqsadli, har bir xodisa va jarayonlarga ongli munosabat bildirishi, inson "MENI"ning shakllanganligidan nishona bo'lib, o'zligini namoyon qilishda muhim me'zon sanaladi.

Bugungi kunda, axborot texnologiyalari, turli-tuman axborotlarni, tezlik bilan tarqalishi, bir vaqtda, dunyoda ishlab chiqarilayotgan nazariya va tomoyillar, zamonamiz muammolarini o'zida mujassam etib, ularni oldini olish yo'llari va mexanizmlarini o'zida ifodalab, shu asosda faoliyat ko'rsatishni belgilab bermoqda.

Inson ijtimoiy hayotda, muammolar ichida yashashi, insonlarni fikr qilishga undab, o'z bilimini oshirib borishga undab kelgan va kelmoqda. Bugungi jamiyatdagi fojiali jarayonlarni tez va takroriy bo'lishligi, insonlarni ma'naviy birlashtirib, birgalikda amaliy faoliyat olib borishni taqoza qilmoqda. Bugungi kunda bilim va ma'rifat, axloqiylikdan uzoqlashish, inson bilimining tarqoq va sayoz bo'lib borayotganligidan dalolat bermoqda. Bu jarayon o'z navbatida insonlarning o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usidan uzoqlashtirib, jamiyat sohalaridagi mavjud tizimlarning ichidan yemirilishiga olib kelmoqda.

Anashunday salbiy illatlar, inson ma'naviy borlig'ining mohiyatini qadrsizlantirib, jamiyatdagi insonlarning anashunday illatlar ta'sirida yashashga bo'lgan maylni ortib borishi, jamiyatda olomon psixologiyasini shakllantirmoqda. Olomon psixologiyasi, o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra maqsadsiz va tartibsiz inson harakatini bildirib, insonlarning ijtimoiylashuv jarayonini yo'qqa chiqaradi.

Insonning jamiyatdagi insoniylik moqomi, o'zidagi nuqson va kamchiliklarni ilg'ashi, ularga javob topishida asosiy rol o'ynaydi. Inson jamiyatdan tashqarida insonlar jamoasidan uzilib yashay olmasligi, jamiyat hayotida inson bolasi, axloqiy barkamol bo'lishligi, ularga tayanib yashashi, kasb-hunar egallashi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, o'ziga munosibini tanlab baholay olishi, insonlarga xos sifat bo'lib, boshqa tirik mavjudodlarga, bu tushunchalarning sababiyati xos emas. Inson,



o'zining mohiyatini anglashi, uning ma'naviy olami va amaliyotining mushtarakligini bildirib, uni taqoza qiladi. Insonning ma'naviy borlig'ining mohiyati va o'zligini anglashi bir-biri bilan dialektik bog'liqlikda, inson hayotining mazmunini to'ldirib insonning jamiyatdagi o'rne va mavqiye, shunga qarab belgilanadi. Bu tushunchalarni birlikda olib qarash, bugungi kun va ertangi kunning eng ta'sirli, dolzarb muammolarini, tez ilg'ab, zararsizlantirib uni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

“Xullas, o'zlikni anglashning mohiyatida insonning insondek yashashi, ishlashi, baxt-saodatga erishuvi yotadi. Hozirgi davr jamiyatida erkin, mustaqil shaxsni qaror toptirish, komil insonni shakllantirish va rivojlantirish maqsadi asosida o'z ichki qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish zaruriyatini anglatadi”<sup>5</sup>.

Inson ma'naviy borlig'ining rivojlanib borishi, insonning amaliy faoliyati bilan uyg'unligi, inson tomonidan, tabiatni ma'naviy va amaliy o'zlashtirishda, muhim sanaladi. Insonlar dunyoda yashar ekan, yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar ta'sirida inson ma'naviy borlig'i tiklanib, o'zlikni anglash tushunchasining mohiyatan tushunib, mustaqil, o'zlarining ishonchi va e'tiqodiga aylantirishlari, jamiyatda erkinlik, tenglik, farovonlik, ma'rifatlilik, o'zgalarni hurmat qilish, yaxshi narsalarga intilish, boriga qanoat va sabr etish, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, qadr-qimmat, bir-birlarini e'zozlash, mehr oqibatli bo'lish, tejamkorlik, hamda bulardan estetik zavqlanish, huzurlanish, lazzatlanish muhitini qaror toptirishda va ijtimoiy ong shakllarining rivojlanish darajalarini o'sib borishida muhim omil sanaladi.

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Davronov Z. va boshq. Falsafa. Darslik. Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2019
2. Tulenov J. Hayot falsafasi.-T.: O'zbekiston. 1993.
3. Ochilova G.A., Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa.-T.: VORIS-NASHRIYOTI. 2020.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. - T.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022.

### **AXBOROT MANBALARI:**

<sup>5</sup> Ochilova G.A., Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa.-T.: VORIS-NASHRIYOTI. 2020. 140.b



1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

3. [www.google.uz](http://www.google.uz).

4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

